

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b. Sh.A.Boymuradov

2024 yil «19» . 07

Ro'yxatga olindi:

Bakalavriat

D.-60910200-1.1.01; MEN.-60410800; 1.01;
PD-60910300-1.1.01; ST.-60910100-1.1.01;
FR-60910800-1.01; K.-60530100-1.01
EK.-60520200-1.02; SURD.-60110300-1.05

**FALSAFA
O'QUV DASTURI**
(barcha ta'lim yo'nalishlari uchun)

Toshkent -2024

Fan/Modul kodi FS11-204		O'quv yili 2024/2025	Semestr 2	ECTS-Kreditlar 4
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg'ulotlar (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – Talabalarni zamonaviy modul yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.</p> <p>Fanning vazifasi – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rnini va ahamiyatini ochib berish; falsafa rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, tabiat va jamiyat borlig'i to'g'risida tasavvurlarini shakllantirish; jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy-tahliliy tanqid nuqtai nazaridan yondashish, o'z-o'zini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuyg'ularini hosil qilish; yoshlarda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism</p> <p>II.I. Modul tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli.</p> <p>Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mif - dastlabki dunyoqarash shakli. Mifologik va diniy dunyoqarashning o'zaro aloqasi va farqi. Diniy dunyoqarashning shakllanishi. Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos roli. Fan ilmiy dunyoqarash shakli. Fanning funksiyalari va taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Falsafa va fanning o'zaro mutanosibligi, farqi. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari. Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish.</p> <p>2- Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq falsafasi.</p> <p>Misr va Bobil falsafiy maktablari. Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar. Konfutsiy va Lao Szi ta'limoti. Markaziy Osiyoda "Avesto" ta'limotidagi falsafiy fikrlar.</p> <p>Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri. Sharq panteizmi va peripatetizmi. Sharq mutafakkirlari (Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino) ning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy ta'limotlari.</p> <p>Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida</p>			

gumanizm g'oyalari. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar: ma'rifatparvarlik va jadidchilik ta'limotlari. XX-XXI asr o'zbek falsafasi.

3- Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: G'arb falsafasi.

Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktablari. Milet maktabi. Suqrotgacha bo'lgan falsafiy tizim va Suqrot maktablari. Antik falsafada Demokrit, Geraklit, Aflotun ta'limotlari. Ellinizm davri falsafasi.

Xristianlik va Avreliy Avgustin falsafiy ta'limotining vujudga kelishi. Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Ilk o'rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika, sxolastika. Nominalizm va realizm. Foma Akvinskiy ta'limoti. G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari. XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari. XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari.

4-Borliq falsafasi (Ontologiya).

Borliq tushunchasining tahlili. Ontologiya tushunchasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq, inson borlig'i, virtual borliq. Substantsiya va substrat tushunchasi. Materiya tushunchasi va uning tashkil topish darajalari.

5-Rivojlanish nazariyasi (Dialektika).

Dialektikaning mazmuni va mohiyati. Dialektikaning tarixiy shakllari. Obyektiv va subyektiv dialektika. Dialektika va metafizika. Dialektikaning prinsiplari, qonun va kategoriyalari.

Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Bazis va lokal qonunlar. Falsafaning asosiy qonunlari. Qarama-qarshilik va ziddiyat qonuni. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Inkorni-inkor qonuni va vorisiylik.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi.

6- Falsafada ong muammosi.

Ongning tabiati. Ong va jonning tenglashtirilishi. Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Ongning strukturasi va funksiyalari.

Ijtimoiy jarayonlarda onglilik va ongsizlikning namoyon bo'lishi. Ongsizlik tabiati. Individual ong borlig'i. Ijtimoiy ong borlig'i. Irratsionalizm ong haqida. Til va ong. O'zlikni anglash.

7- Bilish falsafasi (Gnoseologiya).

Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari. Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati. Empirizm, ratsionalizm va epistemologiyaning uyg'unligi. Bilimning asosiy turlari va shakllari.

Noilmiy bilim shakllari. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari. Ong tafakkur va borliqning birligi. Tafakkur uslubining asosiy jihatlari. Hissiy, empirik va ratsional bilishning birligi va farqlari. Bilishda haqiqat va amaliyot uyg'unligi.

Haqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari. Haqiqatni anglashda isbotlash va rad etish. Amaliyotning tarkibiy qismlari.

8- Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi).

Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari. Inson mohiyatini o'rganishda biologizatorlik va sotsiologizatorlik kontsepsiyalar. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi. Falsafada va tibbiyotda o'lim muammosi.

Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi. Inson borlig'ida faoliyatining tuzilishi va atributlari. Inson faoliyatini tartibga solish mexanizmlari va uning ahamiyati.

9- Jamiyatning falsafiy tahlili.

Jamiyat haqidagi asosiy paradigmlar. Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi. Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy asoslari. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy asoslari.

Jamiyat hayotiga sivilizatsiya ta'siri. Sivilizatsiya tushunchasi. Sivilizatsiyaga turli yondashuvlar. Sivilizatsiya tiplari: yevropa va sharq sivilizatsiyasi, liberal va an'anaviy sivilizatsiya.

Madaniyat, uning tuzilishi va funksiyalari. Madaniyatlardagi umumiylik. Madaniyatning subyekti. Madaniy faoliyat. Madaniy kommunikatsiya.

10- Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari.

Globallashuv - yangi falsafiy mavzu. Globallashuv jarayonlari va globalistika. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning turli darajalari. Hozirgi davrning asosiy global muammolarining tasnifi. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvi; umumiy va xususiy manfaatlari. Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati.

11- Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.

Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiqi etish yo'nalishlari. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni.

Tushunchalarning shakllanishi va qo'llanishi. Tushunchalarning tilda ifoda qilinishi: nom va termin, Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar.

12- Hukm. Xulosa chiqarish.

Hukm tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida. Hukmning tarkibi. Oddiy va murakkab hukmlar va ularning turlari. Murakkab hukmlarning chin bo'lish shartlari.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.

Fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra xulosa chiqarish: deduksiya, induksiya va analogiya. Murakkab hukmlardan xulosa chiqarish.

13-Etika fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va

tuzilmasi.

Etika fanining predmeti, mohiyati va tuzilishi. Axloqning paydo bo'lishiga oid diniy va ilmiy qarashlar. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari va ularning jamiyat hayotida namoyon bo'lishi.

Axloqiy madaniyat va axloqiy qadriyatlar. Kasbiy odobi haqida tushuncha. Tibbiyot kasbining axloqiy me'yorlari. Tibbiyotdagi yuksak axloqiy qadriyatlar: tenglik, adolat, «yaxshilik», burch, javobgarlik, or-nomus, qadr-qimmat, vijdon.

14- Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'рни.

Nikoh - eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikohning qonuniy va diniy jihatlari. Oiladagi psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzandlar tarbiyasiga ta'siri. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar ma'suliyati. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.

Ajralish va unish axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Oilaviy munosabatlarga noan'anaviy yonlashuvlarning oqibatlarini. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'рни.

15- Estetika fanining obyekti va falsafiy mohiyati.

Estetika fanining obyekti va falsafiy mohiyati. Estetika haqida qarashlar tarixi. Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi. Estetika kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi.

Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usuli. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'рни. Texnologiya sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. Maishiy turmush estetikasi. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san'ati va dizayn. Estetikaning tibbiyotda namoyon bo'lish xususiyatlari.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli.

2-mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq falsafasi.

3-mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: G'arb falsafasi.

4-mavzu: Borliq falsafasi (Ontologiya).

5-mavzu: Rivojlanish nazariyasi (Dialektika).

6- mavzu: Falsafada ong muammosi.

7-mavzu: Bilish falsafasi (Gnoseologiya).

8- mavzu: Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi).

9- mavzu: Jamiyatning falsafiy tahlili.

10-mavzu: Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari.

11-mavzu: Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.

12-mavzu: Hukm. Xulosa chiqarish.

13- mavzu: Etika fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi.

14-mavzu: Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi

o'zni.

15-mavzu: Estetika fanining obyekti va falsafiy mohiyati.

Seminar mashg'ulotlar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi roli.
2. Falsafiy bilimlar tizimi va uning xususiyatlari.
3. Falsafaning milliy va umuminsoniy tamoyillari.
4. Fan ilmiy dunyoqarash shakli sifatida.
5. Falsafiy g'oyalar, nazariyalarning asosiy yo'nalishlari va vazifalari.
6. Tarix falsafasi va falsafa tarixi uyg'unligi.
7. Islom dini va falsafasi.
8. Dunyoviy bilimlar rivoji va falsafiy tafakkur.
9. Inson oliy qadriyat.
10. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
11. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi.
12. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.
13. Diniy madaniy an'analarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
14. Sog'lik oliy qadriyat.
15. Oila va oilaviy qadriyatlar ma'naviy madaniyatning bosh omili.
16. Shaxs ma'naviyatining shakllanishiga ijtimoiy muhit va davr ruhining ta'siri.
17. Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi.
18. Axloqning umuminsoniy, mintaqaviy va milliy xususiyatlari.
19. Tabiatni o'rganishga oid qarashlar tarixi.
20. Rim klubi faoliyatining falsafiy tahlili.
21. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tizimi.
22. Ta'lim global muammo sifatida.
23. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi ahamiyati.
24. XX asr falsafasining asosiy oqim va yo'nalishlari.
25. Olam va odam munosabatlarini o'rganishning ahamiyati.
26. Madaniyat va sivilizatsiya.
27. Borliq va yo'qlik, mavjudlik va reallik.
28. Erdagi hayot va biosotsial evolyutsiya.
29. Vorislik va yangilanish.
30. Yoshlar tarbiyasida falsafiy kategoriyalar to'g'risidagi bilimlarning ahamiyati.


31. Informatsion portlash.
32. Ijtimoiy ongning mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari.
33. Qadriyatlarning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati.
34. Evropatsentrizm va Osiyotsentrizm.
35. Jahon XXI asrda: kelajak va inson taqdiri.
36. Jamiyatning ma’naviy hayoti.
37. Hozirgi zamon umumbashariy muammolar va ularning oqibatlarini
38. J.Lokkning tabiiy qarashlari va uning yevropa ilm-faniga ta’siri.
39. Bozor iqtisodiyotining falsafiy muammolari.
40. Hozirgizamon demografiyasining falsafiy tahlili.
41. Mutaxassisning dunyoqarash mavqei.
42. “Yangi falsafiy tafakkur” tushunchasining mazmun va mohiyati.
43. F.Gegelning tarix falsafasi mohiyati.
44. Farobiyning tibbiy-falsafiy qarashlari.
45. Markaziy Osiyoda A.Temur davridagi falsafiy qarashlar.
46. J.Lokkning tabiiy qarashlari va uning yevropa ilm-faniga ta'siri.
47. Ibn-Rushd va Sharq falsafasi.
48. Zamonaviy G‘arb falsafasida kosmopolitizm g‘oyalari tahlili.
49. Madaniy meros va unga munosabat muammolari.
50. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari.
51. Hukmning tarkibi va xususiyatlari.
52. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.
53. Buyuk mutafakkirlar etika kategoriyalari haqida.
54. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari.
55. Estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlari.
56. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi.
57. Global ma'naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi.
58. Jadid mutafakkirlarining axloqiy-estetik qarashlari.
59. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi.
60. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- Belgilangan nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo‘yicha doklad tayyorlash;
- Mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha konspekt yozish;
- fanning mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma’ruzalar qilish;
- Ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarini tayyorlash;
- Grafik organayzer ishlab chiqish va to‘ldirish;
- Krossvordlar tuzish va yechish;
- Mavzularga doir illyustratsiyali tarqatma matiriallar masalalar tayyorlash;

	– Mustaqil o‘qigan ma’lumotlaridan taqdimot tayyorlash.
3.	<p>VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, mantiqiy, etik, estetik madaniyatning inson hayot tarzi va madaniyatini takomillashtirishdagi roli va ahamiyati, • Sharq va G‘arb falsafasining yetakchi g‘oyalari, ilmiy va ma'naviy merosi, dunyoning yagonaligi qonuniyati va unda koinot hamda inson borlig‘ining aloqadorligi, kasbiy faoliyatda falsafaning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda analitik va sintetik, mantiqiy tafakkurning roli, O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati haqida, • modulning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim). • Qadimgi va o‘rta asrlar Sharq va G‘arb falsafasi, yangi va eng yangi davr falsafasining xususiyatlari, ta'limot va g‘oyalari tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar falsafiy qonuniyatlari, tafakkur va borliq, substantsiya va materiya muammosi, makon va vaqt, tabiat falsafasi va ekologiyasi, energiya, inson borlig‘i; falsafa metod, qonun va kategoriyalari, rivojlanish va taraqqiyot falsafasi, haqiqatni anglashda nazariya va amaliyot birligi, bilish metodologiyasi; • o‘zbek milliy falsafasini va bu boradagi buyuk ajdodlarimizning merosi, insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlar, globallashuv jarayonlari haqida bilishi va ulardan foydalana olishi (ko‘nikma); • Falsafani o‘rganish orqali jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini tushunish, ularga falsafiy, tizimli tafakkur nuqtai-nazaridan baho berish; jamiyat taraqqiyotiga oid axborotlarni to‘plash, saqlash va ulardan foydalanish, mantiqiy tahlil etish, o‘zining kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni analitik va sintetik fikrlash asosida qabul qilish; yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olish, takomillashtirish va o‘z mehnatini ilmiylik va bunyodkorlik asosida tizimli tashkil qilish; fikr va qarashlarini og‘zaki va yozma ravishda adabiy til qoidalari asosida konstruktiv, mantiqiy ifoda etish malakalariga ega bo‘lishi kerak (malaka).
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Interfaol o‘yinlar; • Seminar(mantiqiy fikrlash, teskor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha yozma yoki og'zaki va test ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Nazarov Q. Falsafa.-Toshkent:, 2018. 2. Shermuxamedova N.A. Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012. 3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: O'FMJ, 2010. 4. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. T.: O'zbekiston, 2016. 5. Sharipov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. T.: Universitet, 2007. 6. Abdusamedov A.E. Dinshunoslik. T.: O'zMU, 2008. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b. 8. Jaspers K. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77. 9. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341. 10. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019. 11. Izzetova E., Po'latova D. Filosofiya. -Tashkent: Sharqshunoslik, 2012. 12. Falsafa. Ahmedova M. tahriri ostida. T.: O'FMJ, 2006. 13. Osnovya filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-ye.//pod redaktsiey M.A. Axmedovoy, V.S.Xana. – T.: Mehnat, 2004. 14. Soifnazarov I. Kurs lektsiy po filosofii. -T.: TDIU, 2004. 15. Aristotel` Socheniya. V-4-t. -Moskva: Misl`, 1976. 16. Chumakov A.N. Filosofiya. uchebnik. 2-izdanie. – M.: INFRA-M, 2018. 17. Zinovev A. Logika. Moskva, MGU, 2006. 18. Guseynov A.A., Aprasyan R.G.Etika. Uchebnik. - M.: Gardariki, 2013. 19. Krivtsun O.A. Estetika. Uchebnik. - M.: Gardariki, 2013. 20. Rudugin A.A. Estetika Moskva: Izd-vo Sentr, 2003. 21. Karmin A.S., Novikova YE.S. Kul'turologiya. Kiev, Xar'kov-Minsk. 2003. 22. Losev A.F. Bitie-Imya-Kosmos. - Moskva: Misl`, 1993. 23. Platon Sochineniya v 4t. -Moskva: Misl`, 1996. 24. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharh. -Toshkent: Navruz, 2019. 25. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Yangi asr avlodi, 2016. 26. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. -Toshkent: O'zbekiston, 2018. 27. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila - Vatan tayanchi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti MCHJ, 2018. -132 b.

	<p>28. Temur tuzuklari. Kitobni nashrga tayyorlovchi. Jumaboy Raximov.-Toshkent: Shodlik nashrieti.2018.</p> <p>29. O‘zbekiston falsafasi tarixi. Alikulov X. Mas’ul muxarrir, mualliflar jamoasi. Toshkent: Noshir, 2013.</p> <p>30. Xudoyberganov R. O‘lim va barhayotlikning falsafiy metodologii: tahlili. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.</p> <p>31. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. -Toshkent: Noshir, 2018.</p> <p>32. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya - bilish nazariyasi. -Toshkent: “Noshir”, 2011.</p> <p>33. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. -Toshkent, Noshir, 2016.</p> <p>34. Yassaviy Xoja Axmad Devoni xikmat. -Toshkent: Navro‘z, 2018.</p> <p>35. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.</p> <p>36. Yo‘ldoshxo‘jaev H. Rahimjonov D. Komilov M. Dinshunoslik ma'ruzalar matni. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2000.</p> <p style="text-align: center;">Internet manbaalari:</p> <p>37. www.ziyonet.uz</p> <p>38. www.philosophy.ru</p>
7.	<p>Fan/Modul uchun mas’ullar:</p> <p>S.D. Norqulov – TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, f.f.d., dotsent.</p> <p>U.M. Abilov – TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori.</p> <p>F.S. Atamuratova – TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti, f.f.n.</p>
8.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Ichki taqrizchi:</p> <p>D.T.Norqulov – TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori</p> <p>Tashqi taqrizchi:</p> <p>Sh.O.Madaeva - O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa tarixi va mantiq” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori.</p>
9.	<p>Fanning o‘quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 19.07.2024 dagi 03880 -sonli buyrug‘i (buyruqning 1 -ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p>O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i  F.X.Azizova</p> <p>1-son davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov</p>

2-son davolash fakulteti dekani


A.A. Inazarov

Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati,
tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik
fakulteti dekani


A.A. Xamrayev

Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya,
biotobbiyot va oliy ma'lumotli hamshira
fakulteti dekani


S.U. Aliyev

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi,
ekologiya va atrof muhit muhofazasi va
kimyo fakulteti dekani


F.I. Salomova